

ANOR YETISHTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Azimov Baxtiyor Alim o'g'li

+998937198101abaxtiyor940@gmail.com

Termiz agrotexnologiyalari va inovatsion rivojlanish instituti

Meva-sabzavotchilik va texnologiya fakulteti

"Agronomiya va Anorchilik" yo'nalishi

Majidova Safona Ro'zimurod qizi

Achchiq dona, Qozoqi anor, Tuyatish, Ulfı, Perfekto, Karate, Qızılı bosh, Oq dona, Katta qizg'ish, Sariq tun.

Botanik tavsifi. Barglari mayda, nashtarsimon, shoxlari tikanli (shirin mevalisida tikani kamroq). Iyun-iyulda gullaydi. Gullari ikki jinsli, yirik (diametri 8 sm gacha), och qizil, shoxi uchida bitta, ikkita, ba'zan beshtagacha joylashadi. Urug'chisi (onaligi) normal rivojlangan, ko'zachasimon guli meva tugadi, urug'chisi qisqa, qo'ng'iroqsimon gullari odatda meva tugmaydi.

Ko'chat o'raka tik qo'yilib, oldin olingan tuproq chuqur tagiga solinib ko'miladi. Ko'chat ekilgandan so'ng har bir chuqurga suv quyiladi. Bunda tuproq zinchlanib, ko'chat yaxshi ko'karadi. Tuproq cho'kkandan so'ng ko'chat atrofiga tuproq solib to'ldiriladi. Ko'chatlar tuproq namligiga qarab sug'orib turiladi.



Ko'chat ekish uchun chuqurligi va kengligi 50×50 sm bo'lgan chuqurchalar kovlanadi. Chuqur qazishda tuproq ustki qismining 20-25 sm qatlami o'raning bir tomoniga olib, qolgan qismi ikkinchi tomoniga olib qo'yiladi. Ko'chatni ekishdan

oldin tayyorlab qo‘yilgan shaltoqqa (yangi mol go‘ngi tuproq bilan 1:1 nisbatda aralashtirilib, qaymoqsimon massa tayyorlanadi) botirib olinadi so‘ngra ekiladi.

Anor chetdan changlanadi. Mevasi yirik, dumaloq, qizg‘ish (qizil po‘st) yoki oqish (oq po‘st) bo‘lib, og‘irligi 250-1000 g keladi. Mevasi 6-12 uya (xona) li, doni och pushti yoki to‘q qizil. Ta’mi shirin, chuchuk-nordon va nordon, sersharbata (40-60%), tarkibida 14-21% qand, 0,3-9% limon kislota, tanin, vitamin V, S bor. Po‘sti 29-50%, doni 10–20% ni tashkil etadi.

Ekish uchun tavsiya etiladigan anor navlari: Qizil anor, Achchiq dona, Qozoqi anor, Tuyatish, Ulfı, Desertniy va h.k.

Ko‘chatlarni ekishga tayyorlash va ekish. Ko‘chatlarni ekishga tayyorlashda avvalo, tomorqa maydonini yaxshi tekislanadi, so‘ng yerga yetarli miqdorda – go‘ng, chirindi, fosforli, kaliyli va azotli o‘g‘itlarni solib, chuqur haydaladi. Anorni ekish sxemasi – 4×2 m, ko‘chatlarni ekish mart oyi davomida amalga oshiriladi.



Qayin anor – jaydari nav bo‘lib, mevasi yirik (500-700 g). Nordon-xushxo‘r, sharbati qizg‘ish. Tarkibida 19-20% qand bor. Po‘stining qalinligi o‘rtacha, martgacha saqlanadi. Tupi 35-40 kg hosil beradi. O‘zbekistonning hamma viloyatlarida bor.

Qizil anor bu ham jaydari nav. Sharbati tarkibida qand 15-16%, po‘sti yupqa, uzoq saqlashga chidamsiz.

Qozoqi anor- xalq seleksiyasi yo‘li bilan yetishtirilgan. Mevasi 250-300 g, ayrimlari 600-700 g. Mazasi nordonshirin, sharbati qizil. Tarkibida 18-19% qand bor. Po‘sti qalin, 6 oygacha saqlanadi. Tupi 50-60 kg hosil beradi. Toshkent, Andijon, Surxondaryo viloyatlarida keng tarqalgan.

Oq dona (shirin anor) anor – jaydari nav. Mevasi 250-350 g, ayrimlari 500-600 g. Mazasi shirin, sharbati pushti, tarkibida 19-21% qand bor. Po‘sti yupqa yoki o‘rtacha qalinlikda, qizg‘ish-pushti, ba’zisi oq, 2-3 oy saqlanadi. Tupi 25-30 kg hosil beradi. O‘zbekistonning ko‘pchilik viloyatlarida o‘stiriladi.



Mevasi, po‘sti, ildiz po‘stlog‘ida 28% gacha oshlovchi moddalar bor.

Xo‘jalik ahamiyati. Anor asosan, meva sifatida iste’mol etiladi. Anordan qandolat va tibbiyotda keng foydalaniladi, teri oshlashda va gazlamalarni bo‘yashda ishlatiladi. Gulbargi va meva po‘stdidan bo‘yoq, donidan sharbat tayyorlanadi. Yovvoyisidan limon kislota olinadi. Ba’zi turlari xushmanzara o‘simlik sifatida ekiladi.

Biologik xususiyatlari: anor asosan, qalamchadan ko‘paytiriladi. Unumdon qumoq, nami yetarli tuproqlarda yaxshi o‘sadi. Qurg‘oqchilikka chidamli, lekin namsevar. Yerning unumdonligiga qarab, ko‘chat oralig‘i 4×4 va 5×4 , tomorqalarda 3×3 m qilib ekiladi. O‘zbekiston sharoitida kech kuzda xashak, qamish bilan yopiladi yoki tuproqqa ko‘milib, bahorda ochiladi. Vegetatsiya davri 180-215 kun. Yozdan kuzgacha gullaydi.

Mevasi 120-160 kunda – sentabrning ikkinchi yarmida pishadi. – 15° , – 17°C sovuqqa chidaydi, – 20°C da yer usti qismi (tanasi)ni sovuq urib ketadi. Anor 3-4

yoshdan meva tuga boshlaydi, 8-10 yoshdan to‘liq hosilga kirib, 30-40 yil meva beradi. Hosildorligi 200 s/ga gacha boradi.

Agrotexnikasi: anor ko‘chati ekilganidan keyin birinchi yildan boshlab 30-40 sm balandlikda 4-5 ta asosiy shox qoldirib past bo‘yli daraxt ko‘rinishida yoki 3-4 asosiy shox qoldirib butasimon shakl beriladi. Har yili qurigan, nimjon rivojlangan, eskirgan o‘zak novdalar kesib turiladi. Vegetatsiya davrida 6-10 marta sug‘oriladi, qator oralari yumshatiladi, begona o‘tlardan tozalanadi, oziqlantiriladi.



Parvarishlash. Anor qishga ko‘miladigan subtropik ekin turi bo‘lganligi uchun uni butasimon shakllantirish eng maqbul hisoblanadi. Bunda asosiy 3 ta yirik shox qoldiriladi. Yirik shoxlar yerga nisbatan 45 gradus qiyalikda shakllantiriladi. Vaqt o‘tishi bilan hosil tupning markazidan chetga chiqqa boshlaydi, shuning uchun novdalarni qisqartirish talab etiladi. Tomorqadagi anor tuplariga 250-300 g azotli, 200-220 g fosforli va 180-200 g kaliyli o‘g‘itlar sof holda solinishi tavsiya qilinadi. Azot o‘g‘iti ikkiga bo‘lib, 30-40 foizi kuzda, qolgani aprel va iyul oylarida teng miqdorda solinadi. Har 2-3 yilda o‘rtacha 50-60 kg chirigan go‘ng solish hosildorlikning oshishiga ijobjiy ta’sir etadi. Bo‘z tuproqlarda anor o‘suv davri mobaynida 6-10 marta, shag‘alli yerlarda 10-12 marotaba sug‘oriladi.

Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish. Anor daraxtiga o‘rgimchakkana zararkunandasi tushadi. O‘rgimchakkanaga qarshi Perfekto 17,5 % sus.k. (10 sotixga 15-20 ml) purkaladi. Uzum qurtiga qarshi erta bahorda Karate 5% em.k. (10 sotixga 50 ml) preparati purkaladi. Ushbu preparatlar bo‘lmaganda tamaki qaynatmasidan foydalanish ham mumkin.

Hosilni yig‘ishtirish. Anor navlari kuz oylarida pishib etiladi. Ular qo‘l bilan

uzilib, yashiklarga taxlanadi. Anor mevalari turli shikastlanishlarga chidamli bo‘lgani uchun ularni uzoq muddat saqlash va qator-qator qilib taxlash mumkin



O‘lkamizda anorning 3 xil turi va 69 dan ziyod navlari hisobga olingan bo‘lib, achchiq anorning o‘zi 3 xil navga ega, ya’ni “Asl qayin”, “Past qayin”, “Qizil bosh”laridir. Nordon anorlar ham 3 xil navga ega bo‘lib, ular “Asl qubodiyon”, “Ko‘k teri”, “A’lo qayin”dir. Shirin anor ikki xil navga ega, ular “Katta qizg‘ish” va “Sariq tun” deb ataladi va ulardan keltirib chiqarilgan “Qora marvarid”, “Oq dona” (tuyatish – Namangan) va boshqalar dasturxonimiz bezagi bo‘lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Kulkov O.P. Субтропические плодовые культуры. Uzbekistana. – Tashkent: Mexnat, 1986-yil 115-116-bet.
2. Mirzaeva S.A., Xudayberdiyeva M. Anor mevaxo’riga qarshi uyg’unlashgan kurash tizimi. – Ilmiy maqolalar to’plami. – Toshkent, 2009-yil 228-232-bet
3. Xo’jaev SH.T. Insektsid, akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo’yicha uslubiy kursatmalar (II nashr). – Toshkent: Davlat kimyo komissiyasi, 2004-yil 103-bet
4. Xo’jaev SH.T. Umumiy va qishloq xo’jalik entomologiyasi hamda uyg’unlashgan himoya qilish tizimining asoslari (IV nashr). – Toshkent: YAngi nashr, 2019.y 375-bet